

LIDERLIK XUSUSIYATLARINING NIZOLI VAZIYATLARDAN CHIQISH YO'LLARI

Olimov Saydullo¹

Qo'qon Universiteti

KEYWORDS

olamon, jozibadorlik, nasil-
nasab, baxtli bo'ysunish,
jangarilik.

ABSTRACT

Liderlar faoliyatida nizoli vaziyatlarga tushush holatlari ko'p bo'lishi tabiiy hol. Lekin vaziyatdan qay yo'sinda chiqish muammoni ijobiy xal etishga yoki muammo avj olishiga olib keladi. Bu xolatga olib keluvchi psixofiziologik mexanizmlarni ilmiy tahlil qilishni ko'hna va zamonaviy ko'rinishlari tahlil qilinadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15839228**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH

Bugun dunyo miqyosida ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bugun dunyoning siyosiy maydonlarida, ilmiy markazlarida diplomatik aloqalarni ushlab turish masalasi anchagina taranglashishi kuzatilmoqda. Bugun turlicha davlatlardan o'z davlatlari manfaatlarini himoya (yoki o'zga davlatlar manfati yo'lida o'z davlati manfaatini qurbon) qiluvchi rahbarlar kuzatilmoqda. Ilgari kuzatilmagan ajobtovur hodisalarning ro'y berayotganligi xali hamon boshqaruv sohasini, liderlarning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish muammosini tadqiqotchilar oldiga qo'ymoqda.

Bugungi globallashuv zamonida O'zbekiston Respublikasi ham jahonda ro'y berayotgan o'zgarishlar va tebranishlar ta'sir doirasida ekanligini, bu muammolarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini ilmiy tahlil davr talabi ekanligini kuzatilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Bugungi yoshlar zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, qat'iyatli va tashabbuskor bo'lishi, jamoalarni boshqarish va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda».[1.]

Adabiyotlar tahlili

Boshqaruv muammosini o'rganish bir necha fanlar kesimida amalga oshiriladi. Falsafa, menejmet, huquq, iqtisod, pedagogika, sotsiologiya va psixologiya. Liderlar

biologic, neyrofiziologik jixatdan ham ko'plab olimlar tadqiqot ishlari olib borishgan. Ilmiy qarashlarda Darvin ta'limoti asosida xayvonlar olamidagi mavjud qonuniyatlar tahlil qilib o'tilgan. 1. Jangarilik sifatleri: Jismning razmeri va og'irligi; organlarning rivojlanganligi, jang vaqtida g'alabaga moslik; agressivlik; kurashga moillik; fiziologik jasorat; o'ziga ishonch; qatiyatlilik; tajribalilik; hushyorlik; xavf-xatarga tez reaksiya; jismoniy kuch va chidamlilik. 2. Jinsiy xarakteristikasi: jinsiy imkoniyatning yuqoriligi; jinsiy jozibadorlik. 3. Jamoaning boshqa a'zolari bilan munosabatlarda muvaffaqiyatini ta'minlovchi xususiyatlari: guruh bilan munosabatlarda salbiy hissiyot uyg'otmaslik; Ozi tomoniga boshqalarni og'dira olish; barcha guruhiiy ishlarda tashabbuskorlikni namoyon bo'lishi; ehtimolki guruhda intellektning yuqoriligi (Dembovskiy Ya, 1963; Lorents K., 1994; Panov E.N., 1970., Tix N.A., 1970; Maccobiy E.E., Jaclin C.N., 1978) [2.B.30].

Liderlik muammosini tahlil qilish ko'p yillardan buyon juda ham ko'plab tadqiqotlar diqqat markazida bo'lmoqda. Bu fenomenni sotsiologiya, falsafa, tarix, siyosatshunoslik, haqiqatdan ham fanlararo (Diligenskiy G.G., 1996), juda ko'plat xorijiy tadqiqotlarda bu psixologik tomondan tahlil qilinadi. Bu darajadagi ko'plab tadqiqotlarga tayanib M.G.Yaroshevskomu (1978) xatto psixologiyaning alohida oblasti "liderologiya" nomi bilan qayd etdi [2.b.50].

Aslida liderlik muammosiga bag'ishlangan ilk asarlardan Platon o'zining "Davlat" da liderlarning 3 ta tipini ajratib ko'rsatgan: a) faylasuf – davlat ishchisi, respublikani boshqaruvchisi, aql va halollik asosida; b) xarbiy boshliqlar, davlat himoyachisi va boshqalarni o'z irodasiga bo'ysundira oladiganlar; v) Ishbilarmon odam (hozirda biznesmen deb ataladi), material extiyojlarni qondirilishini ta'minlovchi (Stogdill R.M., 1974).

Liderologiyaga Arestotel ham o'z hissasini qo'shdi. Keyinroq Monteske uchta hokimiyatni tipini ajratib ko'rsatdi (birinchi – monarxiya, aristokratiya va demokratiya misoli hokimiyat birligi, a ikkinchi esa – despotyu monarxiya va respublikani (Solomka P.V. 1992)), grek Plutarx (1986-1987) o'zining avtobiografiyasida va rimlik N. Makiavelli kabi avtorlarni kiritish mumkin. U o'zini "Xukumdor" traktatida XVI asrda yozilgan hozirgi zamon paradigmalari shakillanishiga sabab bo'ldi (Medvedev M.I., 1992; Peshkov V.P., 1994). Xattoki makiavellizm deb nomlangan metodik fenomen paydo bo'ldi (Christie R., Geis F.S., 1970). Bu fenomen xarakterli tomono ikkiyuzlamachilikka moyillik, o'z shaxsiy manfatlari yo'lida, boshqalarning manfaat va xissiyotlarini e'tibor bermaslik va hu kabilarga zamonaviy liderlar xususiyati sifatida (Xekxauzen X., 1986; Christie R., Geis F.S., 1970) [2.b.51].

Bunday yondashuv rahbar konflikt holatlarda faqat o'z manfaatini o'ylashi bilan muammoni xal qilishning yo'lini kuzatish mumkin.

O'sha davrlarning psixologlari ancha sezilarli ta'sir ko'rsatdi, masalan, G.Spenser, Ch. Lombrozo, T.karleylya va F.Galton. Bu olib borilgan ishlar bir-biridan tubdan farq qiladi. G.Spenser (1880) bir butun xalqlar (masalan yovvoyi Damarlar) "kim ular ustidan hukumronlik qilsa" bundan hayratlanib o'zlarini qullik mos xarakterlarini takidlaydi (Mixaylovskiy N.K., 1906 – 1914).

“Psixiatro-zoologik” avtorlarning tartiblashicha nazariya qaxramoni Ch.Lombroza takidlashicha konservativ insoniyat oldinga xarakatlanishi uchun o‘z taraqqiyotida ruhlantira oladigan energiyasi yuqori qaxramon insonlarga extiyoj sezadi, ammo psixik normadan og‘gan (shunday qaxramonlar Ch.Lombrozo takidlaydi Lyuter, Konta, Shopengaur va boshqalar). Ular orasida “toza mattoidlar” (Chin dildan o‘zini ilohiy avvaldan belgilangandek tutuvchi va yarim aqlli o‘z-o‘zini buyuk shaxsligini takidlovchi va ko‘plab xatti-xarakatlarni yuzaga keltiruvchi), yana ikkiyuzlamachi aldoqchilar olamoni, o‘z shaxsiy manfaatlarini o‘ylovchi (zamonaviy tadqiqotlarda ularni makiavellar deb ataladi. T.B). Bundan ko‘rinadiki Ch. Lombrozo shunday fikrni ilgari suradi. Qaxramonlar tarixda nafaqat aqlsizlar va yolg‘onchilar balki mattoid na Spartak, na Garibald. Hatto Napoleon esa normal buyuk inson (Mixaylovskiy N.K., 1906 – 1914). Ammo chet elda liderlikka intilish patologiya sanaladi [2.b.52].

G.Tardu bo‘yicha qaxramonlar asosiy sifati olomonga ta‘sir eta olishi- joziba deb ta‘kidlanadi. Buning yordamida olamonni sexrlashga erishadi. Olomon unga o‘xshashga intiladi. Jozibadorlik ta‘minlaydi:

a) qaxramonning turlxil sifatlari (jozibadorlik G.Tardu bo‘yicha: yoshga bog‘liqligi, nasl-nasabiga, boyligiga, jismoniy kuchiga, omadliligiga, shirinsuhanligiga, yarimaqlliligiga, qo‘rqmasligiga va boshqalarga);

b) “mosligiga” qaxramonning davr talabiga mosligiga;

v) olamonning itoat etish extiyojiga va qaxramonga itoat etishida [2.b.53].

Qaxramonlar va olamon munosabati garmonikdir, yoki biri-birini to‘ldiruvchi xarakterga ega: bir kishi xohlaydi buyruq berishni, ikkinchisi – bo‘ysunishni (“hurmatli janobga sevimli yumshoqlik bilan” (Tard G., 1902)). Bunday “baxtli bo‘ysunish”ni tipini tahlil qiladi, xotin – eriga, bola – ota-onasiga, vassal -janobiga.

Xulosa.

Adabiyotlar tahlilidan kuzatishimiz mumkinki qaxramonlarning psixologik xususiyatlari har doim ham belgilangan qoliplarga mos kelmasligini ko‘rsatmoqda. Vaqti vaqti bilan olamonni o‘z xohish idrokiga oson bo‘ysundirish qobiliyatiga ega shaxslar tarix saxnasiga chiqadi. Ularning barchasini sog‘lom vaziyatga adekvat munosabatda javob reaksiyasi ko‘rsata olish qobiliyatiga egaligi turlicha darajada bo‘lishi tabiiy hol. Lekin jahon ayvonida noadekvat shaxslar boshqaruv sohasiga o‘tirishi insoniyat ilm-fan taraqqiyotini yuz yillar ortga surib yuborishi aniq. Shunday aqlinoqislar bugun atom elektr stansiyalarini portlatishni oddiy holdek ko‘rmoqda. Agressiyaga berilish insonning kognitiv sohasiga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatishi asrlar davomida isbotini topmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev, 2025-yil 14-fevraldagi “Prezident yoshlar bilan samimiy muloqot qildi” tele/videoselektor yig‘ilishi, president.uz
2. Психология лидерства: Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2009. — 448 с.
3. Olimov, S. S. (2023). BOSHQARUV MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY TALABLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 245-248.
4. Soxobjonovich, Olimov Saydullo. "TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING

PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI." Analysis of International Sciences 2.2 (2024): 51-57.

5. Soxobjonovich, O. S. (2024). FAVQULOTDA VAZIYATLARDA FUQAROLARNI BOSHQARISH VA BIRINCHI PSIXOLOGIK YORDAM. Analysis of International Sciences, 2(1), 111-115.

6. Soxobjonovich, O. S. (2024). BOSHQARUV SOXASI IJTIMOY-PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI. Kokand University Research Base, 343-347.

7. Soxobjonovich, O. S. (2024). PEDAGOGIK FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA REFLEKSIYANING AHAMIYATI. Международный журнал теории новейших научных исследований, 2(9), 141-151.

8. Sokhobjonovich, O. S. (2025). Analysis paths of the statistical part of research work. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 5(03), 1-4.

9. Sokhobjonovich, O. S. (2025). Determinants of Conflict Occurrence. *International Journal of Pedagogics*, 5(05), 246-247.